



RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

Abdurazzakov Diyorbek Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Xumoyun Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot kafedrası (PhD)

dotsent

Alfraganus Universiteti

Annotatsiya; Ushbu tezis ishida raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning zamonaviy global tendensiyalardagi o'rni va O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi jarayoni tahlil qilingan. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar, IT infratuzilmaning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyalashuvi va IT xizmatlari eksportining o'sishi asosiy e'tiborga olingan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga ko'rsatgan bevosita va bilvosita ta'sirlari (YAIMdagi ulushi, yangi ish o'rinlari, elektron tijorat hajmi) misollar bilan yoritilgan. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar, hukumat qarorlari va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida tahlil ishlari olib borildi. Ish yakunida raqamli iqtisodiyot orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston, texnologiyalar, raqamlashtirish.

Hozirgi zamon global iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar yuksak sur'atlar bilan rivojlanib, iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalariga chuqur kirib



bormoqda. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, katta ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalar an'anaviy iqtisodiy modellarni o'zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining samaradorligini oshirmoqda, balki yangi ish o'rinlarini

yaratish, soliqlar bazasini kengaytirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. 2020 yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy qilish, IT infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish va axborot xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, raqamli iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, mavjud imkoniyatlar va to'siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Raqamli iqtisodiyot-bu raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizim bo'lib, bunda asosiy vosita sifatida sun'iy intellekt, internet, bulutli xizmatlar, raqamli platformalar va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari qo'llaniladi. Jahon banki, OECD va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, global YAIMning qariyb 15-20 foizi raqamli iqtisodiyotdan tarkib topgan. Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvi, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya sohalarida samardorlikni oshiradi, byurokraziyani kamaytiradi va innovatsiyalarni tezlashtiradi.

2. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichlari

2.1. Davlat siyosati va normativ-huquqiy baza



·2020-yilda “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjat asosida elektron hukumat, raqamli moliya, e-tijorat, sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi yo'nalishlari rivojlanmoqda.

·“Elektron hukumat to'g'risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar davlat xizmatlarini raqamlashtirishga asos yaratmoqda.

·2023-2024 yillarda IT infratuzilmani kengaytirish uchun qariyb 500 million dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi (Jahon banki, YeI, Osiyo taraqqiyot banki).

2.2.IT Park va texnologik ekotizim

·IT Park Uzbekistan--raqamli iqtisodiyot markazi sifatida 2019 yilda tashkil etilgan.

·2024 yilga kelib IT Parkda 2 500 dan ortiq rezident kompaniyalar faoliyat yuritmoqda, ularning xizmat eksporti hajmi 200 million dollardan oshdi.

·38 000 dan ortiq ish o'rinlari yaratildi (2024 yil holatiga).

3.Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga ta'siri

3.1.YAIM va raqamli iqtisodiyot

·O'zbekistonning umumiy ichki mahsulotidagi (YAIM) raqamli iqtisodiyot ulushi 2024 yilda taxminan 2,2% ni tashkil etdi.

·IT xizmatlari eksporti 2020 yildan beri 4 barobar o'sdi.

·Bank, sug'urta va to'lov tizimlarida raqamlashtirish aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishini sezilarli oshirdi.

3.2. Bandlik va ish o'rinlari

·Raqamli sohalarda talab ortib bormoqda: IT,kiberxavfsizlik,data-analitika,fintech sohalarida minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.



·Frilanserlik,onlayn ish platformalari orqali yoshlar bandligi kengaymoqda.

XULOSA.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish yo'lida muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. “Raqamli O'zbekiston -- 2030” strategiyasi, IT infratuzilmaning kengaytirilishi, elektron hukumat xizmatlari, e-tijorat va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda, IT xizmatlari eksporti ko'paymoqda va yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Xususan, IT Park kabi raqamli markazlar orqali minglab yoshlar ish bilan ta'minlanmoqda, zamonaviy raqamli xizmatlar bozori shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning yangi

drayveri bo'lishi bilan birga, davlat boshqaruvi, moliya, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, internet infratuzilmasining ba'zi hududlarda sust rivojlangani, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va kiberxavfsizlik muammolari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. -lex.uz
- 2.O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.-stat.uz
3. Jahon banki.“Digital Uzbekistan: Developing the IT Sector and Creating Jobs”,2023 yil.-worldbank.org



4. IT Park Uzbekistan rasmiy sayti.-it-park.uz

5.European Union External Action Service. "EU strengthens digital and economic ties with Uzbekistan under Global Gateway",2023.-eeas.europa.eu

6.OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development)."Measuring the Digital Economy",2022.